

## ABDULLA AVLONIY IJODIDA MIQYOSI NAFSNING O`RGANILISHI

*Jo`rayeva Muhabbat Amonovna*

*BuxMTI akademik litseyi ona tili va adbiyot fani o`qituvchisi*

*BuxDU mustaqil tadqiqotchisi. mux0711@gmail.com*

### Annotatsiya

Ushbu maqolada Abdulla Avloniy ijodida nafs talqini va uni tarbiyaviy ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Nafsni o`z o`lchov tarozisi borligini va undan oqilona foydalanish kerakligini ta`kidlaydi. Muallif yosh kitobxonni sabr degan ne`matdan bahramand bo`lishga tashviq qilargan ekan, inson boshiga keladigan baloyu qazolar tasodifiy emas, balki Ollohu taolo tomonidan yuboriladigan sinovlar ekanligi, shu sinovlardan sabr qilib, chidam bilan o`ta olgan kishigina ajru savobga doxil bo`lishi, ikki dunyo maqsadiga yetishi mumkinligini alohida urg`u beradi. Har bir maqolatdan keyin uning isboti sifatida baytlar keltirib kitobxon qalbiga ta`sir qiladigan shifobaxsh malham vazifasini o`taydi.

### Annotation

This article discusses the interpretation of the ego in the works of Abdullah Avloni and its educational significance. He emphasizes that the ego has its own scale of measurement and that it should be used wisely. The author, while encouraging the young reader to enjoy the blessing of patience, emphasizes that the troubles and misfortunes that befall a person are not accidental, but tests sent by Allah Almighty, and that only those who can endure these tests with patience and endurance can enter the reward and achieve the goal of the two worlds. After each article, he cites verses as proof, acting as a healing balm that affects the reader's heart.

### Аннотация

В статье рассматривается трактовка души и ее воспитательное значение в творчестве Абдуллы Авлони. Подчеркивается, что эго имеет свою собственную шкалу измерения и что ее следует использовать разумно. Автор призывает юного читателя насладиться благословением терпения, подчеркивая, что бедствия и несчастья, которые выпадают на долю человека, не случайны, а являются испытаниями, посылаемыми Всевышним Аллахом, и что только тот, кто способен выдержать эти испытания с терпением и выдержкой, будет вознагражден. , подчеркивает возможность достижения цели двух миров. После каждой статьи он приводит стихи в качестве доказательства, действующие как целебный бальзам, который касается сердца читателя.

**Kalit so'z:** nafs, axloq, sabr-qanoat, shahvat, tama` safohat balosi, xasosat, o`lchov, nafsi ammora, ibodat, hayot

**Ключевые слова:** похоть, мораль, терпение и удовлетворенность, бич жадности, чувствительность, измерение, душа свободна, молитва, жизнь

**Key words:** self, morality, patience, lust, the scourge of greed, sense, measure, self-control, worship, life

**Kirish:** Inson har bir ishni sabru matonat ila yurutsa, maqsudiga tinchu rohatda borub yetar. Hamisha saodatda yashar.

Sekin borgan kishi maqsuda yetgay,

Shoshub besabrlar kaj yo'lga ketgay.

Agar sabring bo'lsa nafsingga yo'ldosh,

Seni tavfiqi rabboniyga eltgay.

Nafsini sabr ila rom qilgan kishi har ishda oshiqmay, ohista harakat qilur. Nafsini halokatdan, g'ururdan saqlar. Sabr shunday bir kuchli narsadurki, shahvatni iffatga, g'azabni shijoatga, shiddatni hilmga, kattalikni tavozu'ga, yomonlikni yaxshilikga aylandurmakga quvvati yetar. Shul xususda so'ylanmish bir hadisi sharifning ma'nosi. "Ilm - imonli kishilarning muhibi, hilm - homiysi, aql - dalili, yaxshi amal – sarmoyasi, muloyimat – volidi, afv – axvoni, sabr – hokimi vijdonidur" deyilmish. Arablar "Assabru miftohul-farah – sabr shodlig'ning kalididur", - deyurlar.

Sabr ila har mushkul ish zoyil bo'lur,

Sabr edan maqsudina noyil bo'lur.

Har kishida bo'lmasa sabri jamil,

Nafs ko'yina yurub, soyil bo'lur.

Sabr qilsang, g'o'radin halvo bitur,

Sabrsizlar o'z oyog'idin yitur"

E'tibor berilsa, "Sabr" xususidagi maqolat muxtasar bo'lsa-da, tugallangan bir asar. Zero, uning birinchi qismida sabrga umumiy ta'rif beriladi, ikkinchi qismida nima uchun sabr qilish kerakligi izohlanadi, uchinchi qismida sabrning fazilatlari ta'riflanadi. Muallif yosh kitobxonni sabr degan ne'matdan bahramand bo'lishga tashviq qilar ekan, inson boshiga keladigan baloyu qazolar tasodifiy emas, balki Ollohu taolo tomonidan yuboriladigan sinovlar ekanligi, shu sinovlardan sabr qilib, chidam bilan o'ta olgan kishigina ajru savobga doxil bo'lishi, ikki dunyo maqsadiga yetishi mumkinligini alohida ta'kidlaydi. Fikr dalili sifatida hadisi sharifdan keltirilgan misol va arab maqoli esa yosh kitobxon nazdida bu fikrlarni yana bir karra tasdiqlaydi. Avloniy shoir sifatida fikrning aqlga, she'rning esa qalbga ta'sir etishini hech qachon xotiridan faromush qilmaydigan ijodkordir. Maqolatdagi she'rlar shu ma'noda to'g'ridan to'g'ri yosh kitobxon qalbiga, yuragiga ta'sir qiladigan shifobaxsh malham vazifasini o'taydi. Bundan tashqari, yana shuni ham ta'kidlash joizki, maqolatdagi har bir jumla o'zicha tugallangan tezisdir. Muallif sabrning fazilatlari to'g'risidagi tezislarni o'rtaga tashlar ekan, har birini alohida-alohida ta'kidlashni ham unutmaydi.

“Sabr qilsang g‘o‘radin halvo bitar, sabrsizlar o‘z oyog‘idan yitar”, degan o‘zbek xalq maqoli esa sabr haqidagi fikrlarning yakuniy xulosasi, qaymog‘i sifatida yosh kitobxon qalbidan mustahkam o‘rin egallashi aniq. Ko‘rinib turibdiki, Abdulla Avloniy nafs yo‘liga kirgan odamni faqat sabr-qanoati orqali hidoyat yo‘liga qaytarish mumkinligini ta‘kidlaydi. “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida esa nafs va unga yaqin tushunchalarga alohida ahamiyat beradi. Jumladan, miqyosi nafs deb atalmish jumlaning quyidagicha ta‘riflaydi: Miqyosi nafs deb qiladurgan amallarim izni, ishlarim izni shariat, insoniyat qonuniga muvofiq o‘lub, o‘lmaydig‘ini vijdonimiz ila o‘lchab ko‘rmakni aytilur. Nafs o‘lchovi haqiqiy bir o‘lchovidurki, insonning o‘z nafsiga loyiq ko‘rmagan muomalani boshqalar haqida ijro etmoqg‘a qo‘ymas, fikr egalari, insof sohiblari har vaqt nafs o‘lchovidan tashqari harakat qilmas. Agarda bir sabab ila shariat hukmidan, insoniyat qonunidan chet ketsa, bu qabohatini nafs o‘lchovi ila bilub, ikkinchi martaba qilmasga qasd va niyat qilub, shariat nizomidan, insoniyat chizig‘idan chiqmaslikg‘a sa‘y va g‘ayrat qilur. Alhosil, nafs o‘lchovi ta‘rifdan tashqari insonlar uchun eng foydali, har kimcha maqbul buyuk bir fazilatdur. Buyuk Iskandar: «Dunyoda eng haqiqiy, to‘g‘ri o‘lchov nafs o‘lchovidurki, bu mezonda zarra nuqson yo‘qdur», — demish.

Ibn Sino hakim : «Insonning fazl-u kamolining o‘lchovi nafsning o‘lchovi ila o‘lchanur»- demish.

Dunyoda har narsaning maxsus o‘lchovi bo‘lar,

Banda af‘olini vijdoni ila tortib ko‘rar

Bir ishiga vaznda kelsa og‘ir o‘z nafsiga,

Ul ishing qandog‘ bo‘laklarga ravo, loyiq ko‘rar<sup>1</sup>

Ko‘rinib turibdiki, ushbu fikrlar orqali nafs o‘lchovini me‘yorda tutib turish kerak va bunda, eng avvalo, inson vijdon amri bilan ish tutishi kerak, hatto jahon podshohlari ham dunyodagi haqiqiy o‘lchov deb nafs o‘lchovini aytibdilar. Shu o‘rinda xalq maqollaridan biri yodga keladi “pichoqni o‘zingga ur, og‘rimasa birovga” albatta, inson nafsini jilolay olishni bilishi kerak, ko‘ngilga biror xusumat keldimi uni avvalo, o‘ziga, ma‘qbul bo‘lsa boshqa birovga ravo aylashi kerak. Bunda, albatta, me‘yor deb atalmish tushuncha o‘z aksini topadi, agar nafs ham me‘yorda, ya‘ni o‘lchovda ushlab turilsa, inson komillik sari yetisha olishi mumkin. Buni buyuk Iskandar hikmatlaridan ham bilish mumkin, hatto bu o‘lchov zamona shohlari uchun dasturulamal bo‘lishi kerakligini ta‘kidlagan. Abdulla Avloniy miqyosi nafsning yonida shahvat, tama‘ safohat balosi, xasosat deb atalmish tushunchalarni ham yaqin qo‘yadi, zero bu tushunchalar nafsning hakalak otishiga sababchi bo‘lgan, nafsni eng yoqori cho‘qqiga chiqaruvchi omillardir deb belgilaydi. Insonlarni saodati abadiyadan mahrum qiladurgan, janobi Haq qoshida va xalq nazarida mazmum, hayoti jovidonimiz uchun

<sup>1</sup> Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. B. 96 25

masmum bo‘lgan axloqi zamimalar: g‘azab, shahvat, jaholat, safohat, hamoqat, atolat, hasosat, rahovat, anoniyat, adovat, namimat, g‘iybat, haqorat, jibonat, hasad, nifoq, tama, zulmdur. Bu sanagan yomon xulqlarning fanoliqlarini, yuqorida sanagan yaxshi xulqlarning go‘zalligini insof muvozanasi ila o‘lchab, vijdon muhokamasi ila tahqiqlab, yaxshilarini tinglab amal qilmak, yomonlarini anglab, hazar qilmak lozimdur.

Shahvat nafsning taayyishindan, taaddisindan hosil bo‘ladurgan bir quvvatdur. Hikmati tabiiyya qonunining ahkomi azaliyasina qaraganda, hissiyoti shahvoniy baqoyi hayotga maxsus bir quvvayi fatriyadur. Shahvat insonning xazinayi ziqiyim ati o‘ldig‘i uchun surati mashruada sarf qilinsa, vujudning zakoti, balki bani bashar naslining madori hayotidur. Har ishda ifrot va tafrit maqbul bo‘lmagani kabi bu xususda ham xasislik ila isrofdan saqlanmak lozumdur. Agar shahvatni g‘ayri mashru‘ bir yo‘lda suiiste‘mol qilinsa, amonatga xiyonat qilgan bo‘ladur. Zero, yemak uchun yaratilgan bir ne‘matning qadr va qiymatini bilmasdan, xorlab, o‘rinsiz yerlarga tashlamoq, oyoq osti qilmoq zo‘r kufroni ne‘matdur. Yaxshi xulq larning ichida farishtalarning g‘ibta qiladurganlari shahvatni mashru‘ yerlarga sarf qilmakni rioyatdan iboratdur. Shahvat inson uchun yaratilmish bir salohdurki, agar o‘rniga iste‘mol qilinsa, vujudimizni har xil taarruzlardan saqlar, o‘rinsiz yerlarga sarf bo‘lsa, insonning iffatini barbod qilmak ila barobar hayotini xarob qilur. Bir kishi qo‘lidagi asbobiga mag‘rur bo‘lub, nobob yerga ursar, ul asbobni o‘tmas qilg‘ani kabi mas‘uliyatdan nafsini ham qutqarolmas. Afsus, bizim yoshlarimizning aksarlari shahvat g‘alabasi-la nafsni amoralarina muhtalo bo‘lub, siflis, zaxm marazlarina giriftor bo‘lurlar. Qancha mehnat va mashaqqat ila topkan oltunlarini boquzmak uchun sarf qilub, oltundan qadrlil aziz umrlarini kasalxonalarda isrof qilurlar. Ulamolardan biri: «Hayot ibodatning asbobi o‘ldig‘i kabi shahvat ham ubudiyatiya xizmat vazifasini ado qilur. Va bu vazifalar haq ila ado qilinmasa, insoniyat ila hayvoniyat orasida nima farq bo‘lur», - demish.

Agar shahvatka dil bersang, bo‘lur qalbing qaro, kam-kam,  
Ketar nasling o‘qi, bel quvvati, ko‘zdan ziyo, kam-kam.  
Tamomi ixtiyoring nafsni badni ilgina bersang,  
Marazlarga duchor aylar, bo‘lur ranging jano, kam-kam.  
Buzuq yo‘llarga isrof aylasang, molingni, joningni,  
Qo‘lingdan din-u dunyo, ish ketar, sharming, hayo, kam-kam<sup>2</sup>.

Betakkor ilm sohibi Abdulla Avloniy shahvatni nafsning eng kattasi, ammo bu o‘z o‘rnida sarflansa inson har xil dard-sitamlardan xoli bo‘lishi, mabodo, me‘yordan oshsa umrning yelga sovrilishi, inson hayvon bilan barobarligiga alohida e‘tibor qaratgan. Demak, xulosa qilib shuni aytish kerakki, nafs ham insonga Oloh tomonidan

<sup>2</sup> Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. B. 96 27

berilgan bir sinovdir agar undan o`rinli foydalanilsa, inson koinot gultojisiga aylanishi, aksinchasi bo`lsa insonning bu dunyoga kelib hech qanday ma`nosiz ketishi bilan barobardur.

**Adabiyotlar ro`yxati:**

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. B. 96 25
2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. B. 96 27